

# **YAHUDONING**

## **MAKTUBI**

### **Kirish**

Mazkur maktub muallifi Iso Masihning va Yoqubning ukasi Yahudodir. Yoqub Quddusdagi jamoatning yetakchisi edi. Bu maktub mazmun jihatidan Butrusning ikkinchi maktubiga o'xshash bo'lib, maqsadi — masihiyarning orasiga kirib olgan soxta ustozlarni fosh qilishdan iborat. Bu soxta ustozlar Xudoning inoyati haqidagi xabarni buzib o'rgatishardi, gunoh qilishga haqqimiz bor, deya faqat nafsi qondirib yashashardi.

Maktub qaysi shahardagi masihiyalar jamoatiga yozilgani aniq emas. Ammo ma'nosi ochiq-oydin ifoda qilingan bo'lib, masihiyarlari soxta ustozlardan hazar qilishga, ularning ta'limotiga qarshi chiqishga undaydi. Bundan tashqari, imonda o'sib-ulg'ayishga, odamlarga mehr-oqibatlari va rahmdil bo'lishga chaqiradi.

Yahudoning maktubi juda qisqa bo'lgani uchun boblarga bo'linmagan.

## **1-BOB**

### **Duoyi salom**

<sup>1</sup> Iso Masihning quli va Yoqubning ukasi men — Yahudodan\*, Xudoning xalqi bo'lishga da'vat qilingan birodarlarga salom! Otamiz Xudo sizlarni Iso Masih kelishiga qadar\* O'z mehr-muhabbati panohida omon saqlaydi\*. <sup>2</sup> Xudo sizlarga cheksiz marhamat, tinchlik va mehr-oqibat ato qilsin.

### **Soxta ustozlardan ehtiyyot bo'linglar**

<sup>3</sup> Azizlarim, hammamiz birgalikda bahra olayotgan najotimiz haqida men sizlarga yozishni juda xohlagan edim. Ammo buning o'rniga sizlarni: "Imonimizni himoya qilaylik", deb undamoqchiman. Axir, Xudo bu o'zgarmas imonni aziz xalqiga to abad topshirgan. <sup>4</sup> Gap shundaki, ba'zi betavfiq odamlar orangizga o'g'rinchka kirib olibdilar. Ular o'z axloqsizligini oqlash uchun Xudoyimizning inoyati haqidagi xabarni buzib o'rgatyaptilar. Yagona Xo'jayinimiz\* va Rabbimiz Iso Masihni rad etyaptilar. O'sha betavfiqlarning jazosi azaldanoq yozilgandir\*.

### **Soxta ustozlarning jazosi**

<sup>5</sup> Bunday odamlarning qismati nima bo'lishini o'zlarining yaxshi bilasizlar. Bularni sizlarga yana bir bor eslatmoqchiman: Egamiz O'z xalqi Isroiilni Misrdagi qullikdan qutqargandi. Keyinroq esa ishonmagan odamlarni halok qilgan edi\*. <sup>6</sup> Shuningdek, o'z mavqeiga yarasha ish tutmay, makonini tashlab ketgan farishtalarni\* ham Egamiz qorong'i zimistonga abadiy zanjirband qilgandi. Ularni buyuk qiyomat kunigacha o'sha yerda saqlab turibdi. <sup>7</sup> O'sha farishtalar singari, Sado'm va G'amo'ra shaharlari\* aholisi, shuningdek, bular atrofidagi barcha shaharlar aholisi ham notabiyy buzuq ehtiroslarga va shahvoniy hirsga berilgan edilar. Oqibatda esa abadiy o'tda kuyib, o'z jazosini olganlar. Ularning qismati hammaga saboq bo'ldi.

<sup>8</sup> Shunga qaramay, oramizga kirib olgan betavfiqlar o'z vahiyalariga tayanib,

badanlarini harom etyaptilar. Xudoning hokimiyatini rad etib, samoviy mavjudotlarni haqorat qilyaptilar\*. <sup>9</sup> Esingizda bo'lsa, bosh farishta Mikoyil iblis bilan Musoning jasadi borasida bahslashgandi\*. Ammo Mikoyil shunda ham iblisni haqoratlab, hukm qilishga jur'at etmadi, u Xudoning hokimiyatini e'zozlagan holda, faqat: "Egamning O'zi seni hukm qilsin", — deb aytgan edi, xolos. <sup>10</sup> O'sha betavfiqlar esa Xudoning qonunini tushunmaydilar, tushunmaganlari uchun ham o'sha qonunni mensimaydilar. Ular o'zlarini ongsiz hayvonlarday tutib, ehtiroslarga berilib yashashdan boshqa hech narsani bilmaydilar. Buning natijasida halokatga yo'liqadilar.

<sup>11</sup> Bu soxta ustozlarning holiga voy! Axir, ular Qobilning\* izidan boryaptilar. Pulga berilib, boshqalarni Balomga\* o'xshab yo'ldan uryaptilar. Ko'rax\* singari isyon ko'tarib, halokatga yuz tutyaptilar.

<sup>12</sup> Bu odamlar jamoatingizni ham halokatga yo'liqtiradilar\*. Ular faqat o'zini boqadigan cho'ponlarga o'xshaydi. Sizlar taom yeish uchun birga yig'ilganingizda, Rabbimiz Isoni xotirlash uchun non sindirganingizda, ular uyalmay, ochko'zlik bilan qorinlarini to'ydiradilar. Ular shamol haydagan yomg'irsiz bulutlarga o'xshaydilar, mavsumida meva bermaydigan daraxtlar kabitirlar. Bu ustozlar qo'porib tashlangan daraxtlarday o'likdirlar. <sup>13</sup> Ular dengizning vahshiy to'lqinlari kabi jo'sh uradi\*, sharmandali ishlarini iflos ko'pikday yuzaga chiqarib, atrofga sochadi. Ular tayyorlab qo'yilgan qop-qorong'i zulmatga adashgan yulduzlarday\* abadiy g'arq bo'lishadi.

<sup>14</sup> Odam Atodan boshlab, yettinchi\* avlodda yashagan Xano'x\* bu odamlar haqida shunday bashorat qilgan\*:

"Rabbimiz ming-minglab muqaddas malaklari bilan keladi.

<sup>15</sup> U jamiki odamzodni hukm qiladi.

Gunohga botgan betavfiqlarni mahkum etadi,  
Yaramas qilmishlari uchun,  
Uni haqoratlaganlari uchun  
Betavfiqlarni jazolaydi."

<sup>16</sup> Oramizga kirib olgan bu betavfiqlar, qachon qaramang, ming'irlab nolib yuradilar. Ular faqat o'z nafsi o'ylab ish tutadilar, maqtanadilar, o'z manfaatini ko'zlab, tilyog'lamatik qiladilar.

### Xudoga sodiq qolinglar

<sup>17</sup> Sizlar esa, ey azizlarim, Rabbimiz Iso Masihning favoriyları aytgan bashoratlarni\* esingizda tutinglar. <sup>18</sup> Axir, ular sizlarni quyidagicha ogohlantirishgan: "Oxirgi zamonda shunday odamlar bo'ladiki, ular faqat o'z nafsi qondirish bilan ovora bo'lishadi, haqiqatga itoat qiluvchilarni mazax qilishadi." <sup>19</sup> Muqaddas Ruhga ega bo'limgan bu betavfiq ustozlar inson tabiatiga qul bo'lib yashaydilar, orangizga nizo urug'ini sochadilar.

<sup>20</sup> Sizlar esa, ey azizlarim, qutlug' imoningizga tayanib hayot kechiringlar. Muqaddas Ruh ilhomni bilan ibodat qilinglar. <sup>21</sup> Xudoning sevgisi panohida bo'lib, o'zingizni asranglar. Rabbimiz Iso Masihning kelishini kutinglar. U kelib, O'z marhamati tufayli bizga abadiy hayot ato qiladi. <sup>22</sup> Ikkilanuvchi birodarlariningizga rahmdil bo'lib\*, <sup>23</sup> ularni qutqaringlar. Ana shunda sizlar bunday odamlarni qiyomat alangasidan chiqarib olganday bo'lasizlar. O'z bilganidan qaytmaganlarga esa achininglar\*. Biroq ehtiyot

bo'linglar, ularning qabih qilmishlaridan hazar qilinglar. Ularning hatto kiyimi ham sizlar uchun harom va jirkanchlidir.

### **So'nggi duo**

<sup>24</sup> Imondan qaytib ketishdan sizlarni faqatgina Xudo asray oladi. U sizlarni beg'ubor va shod-xurram qilib, O'zining ulug'vor huzuriga olib kirishga qodir. <sup>25</sup> Bizni Iso Masih orqali qutqargan yakkayu yagona najotkorimiz Xudoga\* hamdlar bo'lsin! Azaldan, hozir va to abad salobatli, kuch-qudratli, sultanat Sohibi bo'lgan Xudoga shon-sharaflar bo'lsin! Omin.

## IZOHLAR

**1:1** *Yoqubning ukasi men — Yahudo* — Quddusdagi jamoatning yetakchisi bo'lgan Yoqubning va Isoning ukasi (Mark 6:3, Havoriyalar 15:13, 21:18, Galatiyaliklar 1:18-19 ga qarang).

**1:1** ...*Iso Masih kelishiga qadar...* — yoki ...*Iso Masih orqali....*

**1:1** *Otamiz Xudo sizlarni...O'z mehr-muhabbati pano힠ida omon saqlaydi* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Otamiz Xudo sizlarni...muqaddas qilib, O'z pano Haskellida omon saqlaydi.*

**1:4** *Xo'jayinimiz* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Egamiz Xudo.*

**1:4** *azaldanoq yozilgan* — shu bobning 5-16-oyatlarida Yahudo betavfiqlarning qanday jazolanishi haqida misollar keltirgan.

**1:5** ...*ishonmagan odamlarni halok qilgan edi* — Sahroda 14:26-38 ga qarang.

**1:6** *o'z mavqeiga yarasha ish tutmay, makonini tashlab ketgan farishtalar* — qilmishlari uchun jazolangan ilohiy zotlarga ishora bo'lishi mumkin, bu zotlar haqida Ibtido 6:1-4 da yozilgan. Yana 1 Butrus 3:19-20, 2 Butrus 2:4 ga qarang.

**1:7** *Sado'm va G'amo'ra shaharlari* — aholisining o'ta buzuqligi oqibatida Egamiz vayron qilgan ikkita shahar (Ibtido 18:16-19:28 ga qarang).

**1:8** ...*samoviy mavjudotlarni haqorat qilyaptilar* — ularning mag'rurligini va takabburligini namoyon qiladigan xulq-atvorlari. Yana 2 Butrus 2:10-11 ga qarang.

**1:9** ...*Mikoyil iblis bilan Musoning jasadi borasida bahslashgandi* — Yahudo bu o'rinda yahudiylargacha yaxshi ma'lum bo'lgan afsonani nazarda tutgan. Bu afsona yahudiylarning "Musoning jannatga ko'tarilishi" deb nomlangan qadimgi kitobidan olingan.

**1:11** *Qobil* — Ibtido 4:3-8 ga qarang. Bu oyatda aytib o'tilgan odamlar axloqi buzuq bo'lib, boshqalarni ham gunohga yetaklagani bilan tanilgan.

**1:11** *Balom* — Mo'ab va Midyon xalqlari bilan qilgan hamkorligi uchun Isroil xalqining dushmani hisoblangan edi (Sahroda 25:1-5, 16-18, 31:16, Yoshua 13:22, 24:9-10, Vahiy 2:14 ga qarang).

**1:11** *Ko'rax* — Sahroda 16:1-35 ga qarang.

**1:12** *Bu odamlar jamoatingizni ham halokatga yo'liqtiradilar* — Yahudo bu o'rinda dengiz suvining ostidagi ko'zga ko'rinmaydigan qoyatoshlarni bildiradigan yunoncha so'zni ishlatgan. Kemalar o'sha qoyatoshlarga urilib, halokatga uchrar edi. Bu timsol jamoatni halokatga yo'liqtiradigan odamlarga rosa mos kelardi. Ba'zi olimlarning taxmini bo'yicha esa bu yunoncha so'z kiyim-kechakdag'i dog'ni anglatadi. Shuning uchun ularning nazarida yuqoridagi gapni *Bu odamlar jamoatingizga dog' tushiradi* deb tarjima qilsa ham bo'ladi.

**1:13** *Ular dengizning vahshiy to'lqinlari kabi jo'sh uradi...* — Ishayo 57:20-21 ga qarang.

**1:13** *adashgan yulduzlar* — yovuzlikka yuz tutgan farishtalarga ramziy ma'noda ishora qilingan bo'lishi mumkin.

**1:14** *yettinchi* — barkamollik timsoli, Xano'xning so'zlari haqiqat ekanligiga urg'u berish

maqsadida ishlatilgan bo'lishi mumkin.

**1:14** *Xano'x — sharq yozma adabiyotida Idris payg'ambar deb e'tirof etilgan. Ibtido 5:18-24 ga qarang.*

**1:14** ...*Xano'x bu odamlar haqida shunday bashorat qilgan...* — mazkur oyatdagi bashorat so'zлari yahudiylar orasida keng tarqalgan "Xano'xning kitobi" dan olingen. Mazkur kitobdagi hikoyalar yahudiylarga ham, masihiylargacha ham ma'lum bo'lgan.

**1:17** *aytgan bashoratlar* — misol uchun, Havoriyalar 20:29, 2 Butrus 2:1-3, 1 Timo'tiy 4:1, 2 Timo'tiy 3:1-5 ga qarang.

**1:22** *Ikkilanuvchi birodarlariningizga rahmdil bo'lib...* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *Mulohaza bilan ba'zi birodarlariningizga rahmdil bo'lib....*

**1:23** ...*qaytmaganlarga esa achininglar* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *qaytmaganlarni esa fosh qilinglar.*

**1:25** *najotkorimiz Xudo* — yunoncha matndan. Ba'zi yunon qo'lyozmalarida *donishmand najotkorimiz Xudo.*